



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

IBRAGIMOVA MATLUBA JALILOVNA

*Denov tuman 6-umumiy o'rta ta'lim
maktabining ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim metodlarining ahamiyati tadqiq etilgan. "Chaqqarish va javob", "Fikrlar yomg'iri" va "Klaster" kabi usullar orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish maqsad qilingan.

Kalit so'z: Ona tili, adabiyot, kreativ fikrlash, ta'lim metodlari, o'quvchi.

Abstract: This article examines the importance of modern teaching methods in developing students' creative skills in native language and literature classes. The aim is to effectively organize the educational process and increase students' independent thinking skills through methods such as "Challenge and Response", "Thought Rain" and "Cluster".

Keywords: Native language, literature, creative thinking, teaching methods, student.

Kirish

Hozirgi kunda ta'lim jarayoni yanada rivojlanib borayotgani sababli, o'quvchilarning kreativ fikrni rivojlantirish zarurati o'sib bormoqda. O'qituvchilar o'quvchilarning iste'dodlarini ochish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun yangi yondashuvlar va metodlardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada, mazkur sohadagi innovatsion metodlar va ularning ta'siri haqida so'z yuritamiz. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham yangilanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim



sifati ham, mazmuni ham, jamiyat ham o'zgarmaydi"¹, - degan fikri bugungi globallashuv davrida yosh avlodga ta'lim-tarbiya va bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi.

Asosiy qism:

“Chaqarish va javob”metodi

Bu usul o'quvchilarning diqqatini jamlash va darsga tayyor holatga keltirish uchun juda samaraliQuyidagi tarzda qo'llash mumkin:

Qiziqarli boshlash.O'qituvchi ma'lum bir so'zni aytadi yoki signal beradi.O'quvchilar javoban so'z bilan yoki harakat bilan munosabat bildiradilar.

Diqqatni jamlash usuli.Masalan, o'qituvchi: o'qituvchi o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun qo'lini ko'taradi va barmoq bilan 3, 2, 1 deb sanaydi.

- 1.“Ko'zlar ko'radi!” – o'quvchilar qarashini o'qituvchiga qaratadi.
- 2.“Quloqlar eshitadi!” – ular tinglashga tayyorlanadi.
- 3.“Og'izlar yopiladi!” – sinf jim bo'ladi.
- 4.“Qo'llar tekislanadi!” – hamma tartibga keladi.
- 5.“Oyoqlar to'g'ri holatda!” – hamma joyiga o'tiradi yoki turadi.

Bu usul ham o'quvchilarning diqqatini jamlash va intizomni saqlashga yordam beradi. Uni “Jismoniy ishora orqali diqqatni jalb qilish” deb atash mumkin.Darsning boshida bu usulni tez-tez ishlatish kerak.Vaqt o'tishi bilan o'quvchilar siz biror signal bersangiz yoki faqat boshlang'ich so'zni aytsangiz, avtomatik ravishda o'zlarini tartibga solib, javob bera boshlaydilar.

Afzalliklari:Bu usul o'quvchilarning diqqatini bir nuqtaga jamlashga yordam beradi, darsga tez kirishish imkonini beradi va sinfda tartibni saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu usul o'yin shaklida bo'lgani uchun o'quvchilar uni yaxshi qabul qilishadi.

2. Kreativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar

¹Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.



Bugungi kunda ta'lim jarayonida eng muhim talab – qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. O'quvchilarga aniq nazariy bilimlarni yetkazish, ularni amaliy faoliyat bilan bog'lash va erishilgan bilimlarni adolatli baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil va kreativ fikrlashga o'rgatish muhimdir. Quyida zamonaviy ta'lim jarayonida samarali bo'lgan ba'zi metodlarni ko'rib chiqamiz.

“Fikrlar yomg'iri” metodi

Bu usul o'quvchilarni erkin fikr bildirishga o'rgatadi.

Qanday qo'llash mumkin?

Dars mavzusiga oid ochiq savol beriladi.

O'quvchilar hech qanday cheklovlarsiz o'z fikrlarini bildiradi.

Barcha fikrlar yozib boriladi, keyin ular orasidan eng yaxshi g'oyalar tanlanadi.

Bu usul o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va yangi g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

“Klaster” metodi – g'oyalarni guruhlash

Bu metod mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni guruhlash va ular orasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Qanday qo'llash mumkin?

Klaster metodi orqali "Ot so'z turkumi" mavzusini tushuntirish.

Maqsad: O'quvchilarning ot so'z turkumi haqidagi bilimlarini tizimlashtirish va mustahkamlash.


O'tkazish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi: Daskaga yoki katta qog'ozga markaziy tushuncha yoziladi: “OT”.


Markaziy tushunchadan chiziqlar orqali bo'linmalar hosil qilinadi.

2. Fikr yuritish bosqichi: O'quvchilar o'z fikrlarini aytishadi va o'qituvchi yoki o'quvchilar o'zlari klasterini to'ldirib borishadi. Klaster misoli:


Ma'nosi bo'yicha:



Tuzilishi bo'yicha:



Qaysi savollarga javob beradi?



Klaster to'ldirilgach, har bir bo'lim bo'yicha misollar keltiriladi. O'quvchilar o'z misollarini yozib, tushunchalarni mustahkamlashadi.

Afzalliklari: O'quvchilar mavzuni vizual tarzda yaxshiroq tushunishadi. Fikrlarni tizimli tarzda joylashtirishga o'rganishadi. Dars qiziqarli va interaktiv shaklda o'tadi.



ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatadi, va ularga bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Agar o'quvchilar intizomsiz bo'lsa yoki darsga qiziqish bildirmasa, oddiy ma'ruza va an'anaviy usullar ularning e'tiborini tortmaydi. Shuning uchun darsni interaktiv, qiziqarli va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan usullar bilan o'tish lozim.

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bor bo'lgan sinflarda samarali kreativ metodlar:

“Suratlar orqali izohlash” – Vizual metod

Vizual metodni 10-sinf adabiyot darsida qo'llash.

Mavzu: Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi

1. Suratli taqdimot (Slaydlar yoki plakatlar orqali)

Qodiriyning hayot yo'li – suratlar, tarixiy hujjatlar, yozuvchi hayotidan lavhalar (masalan, Yosh Qodiriy, “O'tkan kunlar” qo'lyozmasi, adibning oilasi).

Asarlaridan illyustratsiyalar – kitob muqovalari, film sahnalari, qahramonlar tasviri. Davr muhiti – 1917-yil inqilobi, jadidlar harakati, eski Toshkent manzaralari.

2. Asarning vizual xaritasi. “O'tkan kunlar” asari uchun xarita chizish – unda joy nomlari (Toshkent, Buxoro, Qo'qon) va qahramonlar harakatini ko'rsatish. Asar ichidagi munosabatlar diagrammasi – Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji o'rtasidagi bog'liqlikni grafik tarzda tasvirlash.

3. Film va sahna asarlaridan parchalar ko'rsatish. “O'tkan kunlar” filmi yoki sahna ko'rinishlaridan lavhalar orqali voqealarni chuqurroq tushunish. Asardagi voqealar va real hayot o'rtasidagi farqlarni muhokama qilish.

4. Tushuncha xaritasi (mind map) tuzish



“O‘tkan kunlar” asari syujeti bo‘yicha vaqt jadvallari va asosiy voqealarni grafik tarzda ifodalash.

“Mehrobdan chayon” yoki “Obid ketmon” asarlarining asosiy g‘oyalarini chizmalar orqali ifodalash.

Natija: O‘quvchilar mavzuni tez va samarali tushunishadi. Matnga qiziqish ortadi, tasavvur kuchayadi. Tahlil qilish, mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Tarbiyasi og‘ir bo‘lgan sinflarda dars o‘tish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab qiladi. O‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni faollashtirish va darsga qiziqtirish uchun an‘anaviy yondashuv yetarli emas. Shuning uchun o‘yin, vizual materiallar, jamoaviy ish, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar kabi kreativ metodlarni qo‘llash juda muhim.

“Avtofokus” metodi

O‘quvchilarning e‘tiborini darsga jalb qilish va ularning diqqatini jamlashga yordam beradi. Bu usulda o‘qituvchi o‘quvchilarga qizil va oq kartochkalar tarqatadi. Keyin esa dars jarayonida kutilmaganda savol beradi.

O‘tkazish bosqichlari:

1. Dars boshida har bir o‘quvchiga qizil va oq kartochkalar tarqatiladi.
2. Dars davomida o‘qituvchi kutilmaganda savol beradi.
3. O‘quvchilar savolga “Ha” deb javob bermoqchi bo‘lsa – oq kartochkani, “Yo‘q” deb javob bermoqchi bo‘lsa – qizil kartochkani ko‘taradi.
4. Javoblar asosida o‘qituvchi o‘quvchilarni faol muhokamaga jalb qiladi va xatolarni tahlil qiladi.



“Avtofokus” metodini sinab ko‘rish uchun quyidagilarni tayyorlash tavsiya etiladi:

a)qizil va oq kartochkalar – har bir o‘quvchiga bittadan.

b)qiziqarli va tezkor savollar – dars mavzusiga mos ravishda oldindan tayyorlab qo‘yish.

Agar yuqori sinf adabiyot darsida “Abdulla Oripovning hayoti va ijodi” bo‘yicha “Avtofokus” metodidan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi savollarni tayyorlab, o‘quvchilarga qizil va oq kartochkalar orqali javob berish imkoniyatini bering:

Qoidalar: agar savolga “ha” deb javob bersa, oq kartochkani ko‘tarishadi, agar savolga “yo‘q” deb javob bersa, qizil kartochkani ko‘tarishadi.

Savollar: 1. Abdulla Oripov 1941-yilda tug‘ilganmi? (Ha – Oq kartochka)

2. U “O‘zbekiston Qahramoni” unvonini olmagan. (Yo‘q – Qizil kartochka)

3. Shoir “Sohil” she‘rini yozganmi? (Ha)

4. Abdulla Oripov faqat lirik she‘rlar yozgan. (Yo‘q)

5. “O‘zbekim” she‘ri mashhur she‘rlaridan biri hisoblanadi. (Ha)

6. U “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. (Yo‘q)

7. Shoir o‘z tarjimalari bilan ham mashhur. (Ha)

8. U “Ko‘klam” dostonining muallifi. (Yo‘q)

9. Abdulla Oripov O‘zbekiston madhiyasi matnini yozgan. (Ha)

10. Shoir asosan dostonlar yozgan. (Yo‘q)

Afzalliklari: Bu metod orqali o‘quvchilar diqqatini jalb qilish, faol ishtirok etishini ta‘minlash va o‘yin orqali o‘rganish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, javob bergan o‘quvchilardan izoh so‘rash ularga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam berib, darsga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada oshadi.

“Kreativ qisqa matn yozish” metodi

Maqsad: O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi va yozma nutqini rivojlantiradi. Qanday ishlaydi? O‘quvchilarga bitta she‘r beriladi va ulardan shu she‘rga mos ravishda yangi kichik hikoya yoki monolog yozish so‘raladi.



Masalan, Abdulla Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ri o'qitiladi va o'quvchilar o'z hayotlaridan bahorga oid kichik hikoya yozadi.

Bahor nafasi

Tashqarida bahor, lekin yuraging sovuq. Biroq bir lahza ko'z yum—yaproqlar shivirlayapti, shabada esa seni allalayapti. Ko'ngling tub-tubida yashiringan sog'inchni sezayapsanmi? Bahorni sog'inmaganing rostmi? Balki yuraging boshqa narsani aytayotgandir...

Ona tili darslarini qiziqarli va samarali o'tkazish uchun quyidagi yangi metodlar foydali bo'lishi mumkin:

“Lingvistik qiziqarli test” metodi

Maqsad: O'quvchilarning til bilimi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

O'tkazish bosqichlari: O'qituvchi grammatika, orfografiya yoki stilistika bo'yicha qiziqarli savollar tayyorlaydi.

Test shakli:

1. To'g'ri yoki noto'g'ri: "Ona tilimizda 7 ta unli tovush bor." (To'g'ri)
2. Bo'sh joyni to'ldiring: "Fe'lining ... turi buyruq ohangida bo'ladi." (buyruq mayli)
3. Teskari test: "To'g'ri so'z juftini toping: (A) Darvoza – daryo (B) O'qish – o'qitish" (B to'g'ri)

Natija: O'quvchilar grammatik bilimlarini mustahkamlash bilan birga tez fikrlashga o'rganadilar.

“Grammatik kreativlik” metodi

Maqsad: O'quvchilarni grammatik qoidalarni amaliy qo'llashga o'rgatish va ijodiy fikrlashga undash.

Grammatik kreativlik metodini “Fe'lining zamon shakllari” mavzusida qo'llashni tavsiya qilaman.

Metod mohiyati: O'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, grammatik qoidalarni qiziqarli tarzda mustahkamlash va real hayot bilan bog'lash.

Dars jarayonida kreativ metoddan foydalanish:

1. “Kelajakdan xat” usuli



O‘quvchilarga topshiriq: Siz 2050-yildan maktub oldingiz. Unda fe’llarning zamon shakllaridan foydalanib, hayotda sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan o‘zgarishlar tasvirlangan. Ushbu maktubni davom ettiring.

O‘quvchilar fe’l zamon shakllarini (hozirgi, o‘tgan, kelasi) ishlatib, tasavvurga asoslangan matn yozadilar. Masalan quyidagicha yozishlari mumkin:

Kelajakdan xat – 2050-yildan xabar

Hurmatli do‘stim! Men senga 2050-yildan yozmoqdaman. Bu yerda hamma narsa juda o‘zgargan! Odamlar endi faqat elektromobillarda yurishyapti, havoda shovqin yo‘q, shaharlar yanada toza bo‘lib ketgan. Men hozir aqlli shahar markazida yuribman. Ko‘chalarda avtobuslar haydovchisiz harakat qilyapti. Ilgari qo‘lda yozilgan daftarlar bo‘lsa, hozir esa elektron daftarlar yordamida darslar o‘tilyapti. Hamma aqlli ko‘zoynak taqib yuradi va unda kitob o‘qish, xabar yozish yoki filmlar tomosha qilish mumkin. O‘tgan yillarda sayyoramiz juda o‘zgardi. Insonlar Marsga ko‘chib o‘tishdi, ba’zilari esa hali ham Yerdagi yashil hududlarda hayot kechirishmoqda. Men esa kelajak universitetida o‘qiyapman va yangi texnologiyalar ustida ishlayapman. Siz ham kelajakni tasavvur qildingizmi? Bu yerda yashash qiziq! Maktubimga javob yozishingizni kutaman. O‘zgarishlarni tasavvur qilib, menga qanday bo‘lishini yozing! Hurmat bilan, kelajakdagi do‘stingiz!

2. “Parallel hikoya” metodi

Guruhlarga bo‘lingan o‘quvchilarga bir xil voqea tasviri beriladi. Masalan, "Bir yigit bog‘da yuribdi."

Guruhlar ushbu jumlaning turli zamonlarda (o‘tgan, hozirgi, kelasi) davom ettirib, kichik hikoya tuzadilar.

3. “O‘tmishdan kelajakka” o‘yini. O‘qituvchi jumlar aytadi:

Masalan: “Men kecha parkda sayr qildim.”

O‘quvchilar shu jumlaning hozirgi zamonga va kelasi zamonga moslashtirib, aytishadi:

-“Men hozir parkda sayr qilyapman.”

-“Men ertaga parkda sayr qilaman.”



Bu usullar yordamida o‘quvchilar fe’l zamon shakllarini mustahkamlash bilan birga ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradilar.

“DEBAT VA MUHOKAMA” METODI

Maqsad: O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish va fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish. Qanday ishlaydi? O‘qituvchi mavzuga oid muhokama savoli beradi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi: Birinchi guruh – rozi bo‘lganlar, ikkinchi guruh – qarshi bo‘lganlar. Har bir guruh o‘z fikrini aytadi.

“Debat va Muhokama” Metodi – “Sifat” mavzusida

Mavzu: Sifat so‘z turkumi til boyligining asosimi yoki ikkilamchi unsur?

Metod qo‘llash tartibi:

1. Guruhlarga bo‘lish: Sinf ikki guruhga ajratiladi:
 - a) “Sifat tilimizni boyitadi va asosiy unsur hisoblanadi” – tarafdorlari
 - b) “Sifat ikkilamchi rol o‘ynaydi, asosiy urg‘u ot va fe’lga qaratiladi” – qarshilar
2. Dalillar tayyorlash: Har ikki guruh 5-10 daqiqa davomida o‘z fikrlarini isbotlash uchun dalillar tayyorlaydi. Masalan, tarafdorlar sifatning nutqni jonlantirishini, san’at va adabiyotda muhim rol o‘ynashini misollar bilan tushuntirishadi. Qarshi tomon esa sifat bo‘lmasa ham fikrni aniq yetkazish mumkinligini dalillaydi.

3. Bahs jarayoni: Guruhlar navbat bilan o‘z fikrlarini bildiradilar. Qarshi tomon ularga savollar berishi mumkin.

4. Xulosa chiqarish: Muhokama yakunida har bir guruh xulosa qiladi. O‘qituvchi bahs jarayonini tahlil qilib, mavzuni umumlashtiradi.

Afzalliklari: O‘quvchilar sifatning ahamiyatini chuqurroq tushunishadi. Mantiqiy fikrlash va nutq madaniyati rivojlanadi. Mavzuni yodlash emas, tushunish asosida o‘rganish ta’minlanadi. Bu metod bilan darsni qiziqarli va interaktiv tarzda o‘tish mumkin.

Xulosa

Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish zarur. “Chaqqarish va



javob”, “Fikrlar yomg‘iri”, va “Klaster” kabi usullar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ijodiy fikrlash va bilimlarni tizimlashtirish uchun samarali. Ushbu metodlar nafaqat o‘qitish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchi sifatida, bu metodlarni muvaffaqiyatli qo‘llash orqali, ta’lim sifatini yaxshilash va yosh avlodni zamonaviy talablar darajasida tarbiyalash imkoniyatimiz bor. Kreativ fikrni rivojlantirish bilan birgalikda, o‘quvchilarni yanada muvaffaqiyatli, erkin fikrli shaxslar sifatida formalashtirishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qosimov O., Yo‘ldoshev B. – “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
- 2.G‘ulomov S., G‘afforova M. – “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
- 3.Hoshimov A., Yo‘ldoshev B. – “Nutq madaniyati va stilistika”. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020.
4. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
- 5.2022.–224 b. Botirov O., Ibrohimova F. O‘zbek tilidan dasturlashtirilgan topshiriqlar.–Urganch,1993.
6. Dars samaradorligini oshirish (ilmiy va metodik ishlar to‘plami).– Namangan,1996.
- 7.Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili.– Toshkent: Sharq, 2000.